

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING XUSUSIYATLARI VA EHTIYOJLARINI HISOBGA OLINGAN HOLDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH

Mirsolixova Sadoqat Mirjaxongir qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlari va ehtiyojlarining hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish muammolarini o'rganish, nazariy-amaliy tahlil qilish, ushbu muammolarning kelib chiqish sabab va oqibatlarini aniqlash hamda yechim va tavsiyalar berishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlari va ehtiyojlarining hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalar tahsili, tarbiyasi hamda hayotidagi zaruriyati yoritilgan. Mazkur ta'lim sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etish yuzasidan metod hamda tavsiyalar taqdim etilgan. Keltirilgan ijtimoiylashuv ko'nikma-malakalarini rivojlantiruvchi metodlarning samarali tomonlari amaliy-eksperimental tadqiq qilinib, statistik tahlillar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *nogironligi bo'lgan shaxs , inklyuziv ta'lim, rivojlantiruvchi muhit*

Kirish. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini hisoblanib, unda har bir bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash jarayoni yanada mas'uliyatli yondashuvni talab qiladi. Chunki bu toifadagi bolalarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o'ziga xosliklar ularning ta'lim olish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada bunday bolalar uchun qulay, xavfsiz hamda rivojlantiruvchi muhitni yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini ochish, ijtimoiylashuv jarayonini faollashtirish va hayotga moslashuvini yengillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ehtiyojlari hamda aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib rivojlantiruvchi muhitni samarali tashkil etish masalalari tahlil qilinadi.

Bugungi kunda respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda (keyingi o'rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari) 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi. Nogironligi bo'lgan bolalarning ko'payishi har bir davlatning istiqboliga xavf solib, bolalarni ijtimoiy himoya qilishga oid davlat siyosatini amalga oshirishga sabab bo'ladi. Bunda inklyuziv jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi nogironlikni inson huquqlarining subyektivi sifatida tan olinishi, ularga nisbatan ijtimoiy yondashuvni qo'llash, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan tendensiyalarni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Jahonning yirik ilmiy markazlarida nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash yo'nalishida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, nogironligi bo'lgan shaxslar hayot sifatini oshirishga qaratilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish, nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan stigma va diskriminatsiyaga barham berish, jamiyatda ularga nisbatan yuzaga keladigan noqulayliklarni kamaytirish, mahsulot va

xizmatlarning qulayligini ta'minlash, teng huquqlilik siyosatini olib borish, oila qurish huquqini ta'minlash, ularni davolash, inklyuziv ta'lim berish orqali jamiyatga uyg'unlashtirish va ijtimoiy himoya qilishda kompleks yondashuv zarurati ilgari surilmoqda.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom bolalar qatorida maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalash amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga integratsiyalashuvi (uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish) tajribasi qo'llanilishi natijasida so'nggi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar oddiy maktabgacha ta'lim muassasalariga qaytarildi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalar uchun rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning mohiyati muhim kattalar va tengdoshlari bilan samarali polisub'yektli o'zaro aloqalarni tashkil etish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Alohida ta'lim ehtiyoji bor maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoni innovatsion rivojlantiruvchi muhitni yaratishning asosiy maqsadi bo'lib, bolalarni to'laqonli ijtimoiy moslashuvchan rolli xulq-atvorga o'rgatish tizimini o'z ichiga oladi, bu esa sub'yekt-sub'yektli munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyoji bor maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi mezonlar, bolalarning ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish hamda kattalar va tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish tizimini rivojlantiruvchi maxsus kompetensiyalar tizimidan iborat.

Hamrohlik tizimi mutaxassislarining faoliyati va funksional yo'nalishi diagnostik, korreksion va rivojlantiruvchi ishlarning mazmunli tomonlarini kuchaytirishga imkon beruvchi maxsus metodik usullarni o'z ichiga olishi kerak.

Inklyuziv ta'lim – bu maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir. Inklyuziv ta'lim – bolalarni

bir-biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, ta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati¹. Inklyuziv ta'lim – bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon². Inklyuziv ta'limning maqsadi – har bir bolaga teng huquqlilik asosida bilim olish imkoniyatini yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim.

Inklyuziv ta'lim orqali quyidagi maqsad va vazifalar hal etiladi³:

- imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik, pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatlariga mos ta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashishlarini amalga oshirish;

- bolalarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyat va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, do'stona munosabatlarni shakllantira olish, bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalarni oilalardan ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish.

Inklyuziv ta'lim tamoyillari:

1. Insonning qadr-qimmatini, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega.

¹ О.Мусурмонова ва б. Мактабгача ва бошланғич таълим атамаларининг изоҳли луғати. Bekinmashoq-Plyus. 2011.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 декабрдаги “Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиqlаш тўғрисида”ги 802-сон қарори

³ Р.Шомахмудова. Имконияти чекланган болаларни инклюдив таълимда ўқитиш услублари. Т., 2008. 32-бет.

3. Har bir kishi muloqot qilish va boshqalar tomonidan eshutilish huquqiga ega.
4. Hamma insonlar bir-birlariga muhtojlar.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma insonlar o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stona munosabatiga muhtoj.
7. Barcha ta'lim oluvchilar uchun yutuq bu ularning nimanidir qila olishidadir.
8. Xilma-xillik hayotning barcha tomonlarini kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim bolalarning turli ehtiyojlarini va qobiliyatlari, jumladan, ularni o'rganish usullari va bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi va ularning ehtiyojlarini qondiradi. Bu individullashgan o'qitish metodi va muvofiqlashtirilgan o'quv reja asosida amalga oshiriladi.

Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishi natijasida:

- imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning ma'naviy muammolariga barham beriladi va ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;
- imkoniyati cheklangan bolalarning tengdoshlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari va jamoatchilik orasida kamsitilishining oldi olinadi, bolalar o'rtasida tenghuquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan
- imkoniyat yaratiladi;
- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;
- barcha uchun ta'lim sifati yanada yaxshilanadi;
- imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar inklyuziv ta'limi asosan alohida ehtiyojli bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan tashkilotlarda tashkil etiladi. Bunday tashkilotlar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'qitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqalashtirilgan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida erkin tarbiyalanishlari, sog'lom bolalar orasida o'zini yaxshi his qilishlari, jamiyatga oson moslashib ketishlari uchun qator sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi ko'zda tutiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktab bosqichida ham hech qiyinchiliklarsiz ta'lim olishlari, turli kasblarga, tasviriy san'at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kompyuter, tikuvchilik hamda boshqa maktabdan tashqari to'garaklar bilan qamrab olinadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda shu asosda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi va shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish esa ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Mazkur muhit bolalarning qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda yaratilgandagina ularning ichki salohiyatini ochish, faolligini oshirish va jamiyatda munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi.

Shu bois, pedagoglar va tarbiyachilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi — ular har bir bolaga individual yondashgan holda, mehr va e'tibor bilan rivojlantiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishlari zarur. Faqat shundagina imkoniyati cheklangan bolalarning to'laqonli rivojlanishi va hayotga muvaffaqiyatli moslashuvi

ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Raximova D. Nutq kasalliklari va ularni bartaraf etish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti. 2021.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimiga doir huquqiy - me'yoriy hujjatlar to'plami", 2009 yil.
3. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
4. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori II O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 11- modda. T.: O'zbekiston, 1997. B.23